

Umumta'lim maktablari 6-sinf o'quvchilarining 2024-2025 o'quv yilida tabiiy fanlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun test topshiriqlari varianti

6 - ____ sinf o'quvchisi _____

F.I.SH.

O'quvchi to'plagan umumiy ball: _____ (maksimal ball: 40)

IV CHORAK ChSB I VARIANT

1. **Magmatik tog' jinslari qanday hosil bo'ladi?** (Bilish- 2,5 ball)
 - A. Okean va dengizlarning sirtida lavalari otilishidan
 - B. Vulqon otilganda oqib chiqqan magmaning sovib qotishidan
 - C. Atmosfera tarkibida zararli moddalarning to'planishidan
 - D. Sun'iy ravishda hosil qilinadi
2. **Qaysi qatorda tuproqning tuzilishiga ko'ra turlari to'g'ri berilgan?** (Bilish- 2,5 ball)
 - A. Donador, mayin, hosildor
 - B. Donador, mayda, yengil
 - C. Donador, mayin (ipaksimon), yopishqoq
 - D. Qattiq, mayin, unumdor
3. **Qaysi variantda Yerga nisbatan Quyoshga yaqinroq bo'lgan sayyoralar to'g'ri keltirilgan?** (Bilish- 2,5 ball)
 - A. Mars, Merkuriy, Venera
 - B. Merkuriy, Saturn
 - C. Venera, Mars
 - D. Merkuriy, Venera
4. **Ketma-ket zanjir elementlaridan biri buzilsa, _____, chunki _____.** (Qo'llash- 4,5 ball)
 - A. zanjir ishlamay qoladi, boshqa chiroqlar yo'q
 - B. zanjir ishlamay qoladi, ochiq zanjir hosil bo'ladi
 - C. zanjir uziladi, chunki tok manbai ishlamaydi
 - D. zanjir uziladi, kalit ochiq bo'ladi
5. **Qaysi rasmlarda toshqotgan qoldiqlar tasvirlangan?** (Qo'llash- 4,5 ball)



1



2



3



4

- A. 1 va 4
- B. 2 va 3
- C. 2 va 4
- D. 1 va 3

6. Inson faoliyatining tog' jinslariga ta'siri keltirilgan javobni tanlang.

(Qo'llash- 4,5 ball)

- A. tog' jinslaridan qurilish materiali sifatida foydalanish
- B. kislotali yomg'irning tog' jinslarini yemirishi
- C. sel toshqinlari tog' jinslarini oqizib ketishi
- D. tog' jinslarining zilzila ta'sirida parchalanishi

7. Tuproqning oraliq qatlamida mineral moddalar _____, chirindi _____ bo'ladi, shu sababli o'simliklar _____.

(Chiziqlar o'rniga bitta variantdagi mos so'zlarni tanlang) (Qo'llash- 4,5 ball)

- A. qattiq; yumshoq; o'sadi
- B. kamroq; ko'proq; o'smaydi
- C. juda ko'p, juda kam, bo'lmaydi;
- D. ko'proq; kamroq; o'smaydi

8. Jadvalda berilgan tuproq qatlamlarini ularning tarkibi bilan moslashtiring. (Qo'llash- 4,5 ball)


	Tarkibi		Tuproq qatlamlari
1	mineral moddalar	a	Oraliq qatlam
2	tuproq hosil qiluvchi ona jinslar		
3	ozuq moddalar to'plangan	b	Tog' jinsi qatlami
4	tosh, shag'al, qum		

- A. 1 – a, 2 –b, 3 – a, 4 – b
- B. 1 – a, 2 –a, 3 – b, 4 – b
- C. 1 – b, 2 –a, 3 – b, 4 – a
- D. 1 – b, 2 –b, 3 – a, 4 – a

9. Qaysi javobda quyidagi modelga tog'ri ta'rif berilgan?

(Qo'llash- 4,5 ball)

- A. Yer Quyosh atrofida va Oy atrofida aylanadi
- B. Oy Yer atrofida va Quyosh atrofida bir xil aylanadi
- C. Yer Quyosh atrofida, Oy esa Yer atrofida aylanadi
- D. Yer o'z o'qi atrofida aylanadi



10. Yer orbita bo'ylab taxminan 365 sutkada to'liq bir marta aylanadi. Merkuriyning Quyosh atrofida aylanish davri taxminan 88 sutka. Merkuriyning Quyosh atrofida aylanish davri Yer aylanish davridan necha marta kichik? Javobingizni butun songacha yaxlitlang.

(Mulohaza yuritish- 5,5 ball)

- A. 3
- B. 5
- C. 4,5
- D. 4